

**“TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION”  
xalqaro universiteti rektori olimpiadasi  
NIZOMI**

**1-§. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom “Tashkent International University of Education” (keyingi o‘rinlarda — TIUE) xalqaro universiteti rektori olimpiadasini o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. TIUE xalqaro universiteti rektori olimpiadasi (keyingi o‘rinlarda — olimpiada) Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi hamda TIUE xalqaro universiteti tomonidan xolislik, oshkoralik va adolat tamoyillariga amal qilingan holda joriy o‘quv yilida o‘tkazilgan asosiy fan olimpiadalarining tuman bosqichida matematika yoki ingliz tili fanlaridan 1-10-o‘rinni egallagan umumta’lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladi.

**2-§. Olimpiadaning maqsadi va vazifalari**

3. Umumta’lim maktablarida aniq fanlar hamda xorijiy tillarni o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘qitish sifati bo‘yicha xalqaro mezon va standartlarga muvofiq yuqori ko‘rsatkichlarga erishishga zamin yaratish tanlovning maqsadi hisoblanadi.

4. Quyidagilar tanlovning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- umumta’lim maktablarida matematika va ingliz tili fanlarini o‘qitish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligini tahlil qilish;

- matematika va ingliz tili fanlari bo‘yicha o‘quvchilarga sifatli ta’lim berayotgan, samarali faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarni aniqlash va rag‘batlantirish.

**3-§. Olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish**

5. Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi hamda TIUE xalqaro universiteti tomonidan Tashkiliy qo‘mita tuziladi.

6. Tashkiliy qo'mita:
- olimpiada o'tkaziladigan joyni belgilaydi va tasdiqlaydi;
  - hakamlar hay'ati tarkibi, auditoriya rahbarlari ro'yxatini shakllantiradi;
  - olimpiada materiallarining maxfiyligini hamda olimpiadani mazkur Nizom talablari asosida o'tkazilishini ta'minlaydi.

#### 4-§. Olimpiada natijalarini baholash

7. Olimpiada ikkita turda tashkil qilinadi, birinchi turda ishtirokchilar matematika fanidan test va ikkinchi turda ingliz tili fanidan insho yozadilar.

Bunda:

Matematika fanidan ishtirokchilarga ingliz tilida turli qiyinlik darajasidagi **20 ta yopiq test savollari** (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) taqdim qilinib, ularni bajarish uchun **90 daqiqa** vaqt beriladi. Test topshiriqlarining dastlabki **10 tasi sodda darajada** bo'lib, har bir to'g'ri javob **1 ball** bilan baholanadi;

keyingi **5 tasi o'rta qiyinlik darajadagi test bolib**, har bir to'g'ri javob **3 ball** bilan baholanadi;

qolgan **5 tasi qiyinlik darajasi murakkab bo'lgan test bolib**, har bir to'g'ri javob **5 ball** bilan baholanadi, jami 50 ball ( $10 \cdot 1 + 5 \cdot 3 + 5 \cdot 5 = 50$ ).

Ingliz tilidan ishtirokchilar berilgan mavzuga oid insho yozadilar.

Insho quyidagi mezonlarda baholanadi:

- Berilgan mavzuni yoritish uchun 20 балл
- Fikrlash uyg'unligi va mantiqiyligi uchun 10 балл
- So'z boyligi uchun 10 балл
- Grammatik savodxonlik uchun 10 балл

Insho uchun **90 daqiqa** vaqt ajratiladi va **50 ballgacha** baholanadi.

Ishtirokchilar ikki tur bo'yicha umumiy **100 ball** bilan baholanadi.

8. Umumiy natijalariga ko'ra ishtirokchilar orasidan ballar ketma-ketligida 3 nafar g'olib (1-, 2-, 3-o'rinlar) aniqlanadi.

Shuningdek, 4-25-o'rin egalariga turli darajadagi imtiyozlar taqdim etiladi.

9. Yakuniy natijalarga ko'ra, g'olib o'rinlar uchun bir nechta ishtirokchilarning ballari teng bolgan taqdirda, matematika fanidan test natijalari bo'yicha ko'p ball to'plagan o'quvchi ustunlikka ega boladi;

agar test natijalari ham teng bolsa, murakkab test topshiriqlar bo'yicha ko'p ball to'plagan o'quvchi ustunlikka ega boladi.

10. Barcha holat bo'yicha ham ballar teng bo'lgan taqdirda o'quvchilarga hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha 3 ta ochiq test (javobi yoziladigan) beriladi va bu uchun 15 daqiqa vaqt ajratiladi hamda yakuniy natijalarga ko'ra g'olib aniqlanadi.

11. Olimpiada natijalari olimpiada o'tkazilgandan keyin 5 (besh) ish kunida TIUE xalqaro universitetining rasmiy saytida e'lon qilinadi. ([www.tiue.uz](http://www.tiue.uz))

### **5-§. Nazorat materiallarini tayyorlash**

12. Olimpiada jarayonida foydalaniladigan barcha topshiriqlar TIUE xalqaro universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi.

### **6-§. Hakamlar hay'ati**

13. Olimpiadada tashkiliy qo'mita tomonidan matematika va ingliz tili fanlaridan TIUE xalqaro universiteti professor-o'qituvchilaridan iborat bo'lgan hakamlar hay'ati tuziladi.

14. Ishtirokchilarga topshiriqlarni bajarish uchun berilgan vaqt yakunlangandan so'ng, auditoriya kuzatuvchilari tomonidan o'quvchilarning ishlari yig'ib olinadi va shifrlangan holda hakamlar hay'atiga topshiriladi.

15. Hakamlar hay'ati olimpiada ishtirokchilari tomonidan bajarilgan ishlarni to'g'ri javoblar va baholash mezonini asosida xolisona tekshiradi hamda baholaydi.

16. Ishtirokchilarning test topshiriqlariga bergan javoblar varag'ida bitta savolga ikki va undan ortiq javoblar to'g'ri deb belgilangan bo'lsa, ularning biron-tasi ham inobatga olinmaydi va ushbu savolning javobi uchun 0 ball qo'yiladi.

### **7-§. Olimpiada g'oliblarini rag'batlantirish**

17. TIUE universiteti olimpiadasi g'oliblari quyidagi tartibda rag'batlantiriladi:

**1-o'rin uchun** – noutbuk hamda universitetda bir o'quv yili o'qish uchun 100% lik grant;

**2-o'rin uchun** – planshet hamda universitetda bir o'quv yili o'qish uchun 75% lik grant;

**3-o'rin uchun** – mobil telefon hamda universitetda bir o'quv yili o'qish 50% lik grant;

**4-14-o‘rinlar uchun** – universitetning esdalik sovg‘alari hamda bir o‘quv yili o‘qish 30% lik grant;

**15-25-o‘rinlar uchun** – universitetning esdalik sovg‘alari hamda bir o‘quv yili o‘qish 20% lik grant taqdim etiladi.

Barcha sovrindorlar (1-25-o‘rin egalari) TIUE xalqaro universitetiga kirish imtihonlarisiz qabul qilinadi.

Eslatma: ishtirokchilarning hujjatlarida qalbakilik aniqlangan yoki ishtirokchining o‘rniga boshqa shaxs asossiz ishtirok etgan taqdirda o‘rinlar bekor qilinadi.

### **8-§. Apellyatsiya jarayonini tashkil qilish**

18. Olimpiada ishtirokchilari tomonidan olimpiada jarayonini tashkillashtirish masalalari bo‘yicha e‘tirozlari bo‘lgan yoki olimpiada nizomini buzish holatlari aniqlangan taqdirda, shu paytning o‘zida yoki olimpiada tugagandan keyin bir soat ichida Tashkiliy qo‘mitaga murojaat qilishlari mumkin. Belgilangan muddatdan keyin bildirilgan e‘tirozlar qabul qilinmaydi.

### **9-§. Yakunlovchi qoidalar**

19. Mazkur Nizomni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

20. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.